Annotatsiya: Mazkur maqolada robototexnikani o'rganishda juda foydali bo'lgan sun'iy intellekt (SI) sohalari hamda zamonaviy o'quv platformalari va veb-saytlari haqida so'z yuritiladi. Hozirgi kunda robototexnika va sun'iy intellekt (SI) sohalari jadal rivojlanib, global mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan yo'nalishlardan biriga aylanmoqda. Maktab o'quvchilarini ushbu sohalarga jalb qilish va ularga amaliy tajriba berish orqali kelajak IT sohasiga oid kasblarga yo'naltirish hamda qobiliyatli mutaxassislarni shakllantirish mumkin.

Shuningdek, texnologiya fanida robototexnikaga oid mavzular asosidagi dars mashg'ulotlarida zamonaviy o'quv platformalari va veb-saytlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi hamda o'quvchilarning mustaqil o'rganish, loyihaviy ishlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa ularni nafaqat robototexnika va sun'iy intellekt sohasiga, balki kengroq ma'noda zamonaviy ishlab chiqarish, raqamli texnologiyalar va innovatsion faoliyatga tayyorlaydi. Natijada, texnologiya fani orqali robototexnika va sun'iy intellektni integratsiyalash o'quvchilarning kasbiy yo'nalishini aniqlashda hamda ularning kelajakda muhandis, dasturchi va texnolog sifatida shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu maqolada o'quvchilar uchun maxsus ishlab chiqilgan veb-sayt va platformalarning samaradorligi, ularning ta'limga ta'siri va rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: robototexnika, Tinkercad platformasi, sun'iy intellekt, ta'lim, texnologiya fani, veb-platforma, amaliy mashg'ulotlar, dasturlash.

Abstract: This article discusses artificial intelligence (AI) fields and modern educational platforms and websites that are highly effective in learning robotics. Currently, robotics and artificial intelligence (AI) are rapidly developing and have become some of the most in-demand fields in the global labor market. Engaging school students in these areas and providing them with practical experience can help guide them toward IT-related professions and foster the development of skilled specialists.

Furthermore, the use of modern educational platforms and websites in technology classes, particularly in lessons based on robotics topics, enhances the effectiveness of the learning process and develops students' independent learning, project-based work, and creative thinking skills. This, in turn, prepares them not only for robotics and artificial intelligence fields but also for broader areas such as modern manufacturing, digital technologies, and innovative activities.

As a result, integrating robotics and artificial intelligence into the technology curriculum plays an important role in determining students' professional orientation and in shaping them as future engineers, programmers, and technologists.

The article also analyzes the effectiveness of specially designed websites and platforms for students, their impact on education, and their development prospects.

Key words: Robotics, Tinkercad, artificial intelligence, education, technology education, web platforms, practical training, programming.

Аннотация: В данной статье рассматриваются области искусственного интеллекта (ИИ), а также современные образовательные платформы и веб-сайты, которые являются эффективными средствами изучения робототехники. В настоящее время робототехника и искусственный интеллект (ИИ) стремительно развиваются и становятся одними из наиболее востребованных направлений на мировом рынке труда. Привлечение школьников к данным областям и предоставление им практического опыта способствует их профессиональной ориентации в сфере ИТ и формированию квалифицированных специалистов.

Кроме того, использование современных образовательных платформ и веб-сайтов на уроках технологии, особенно при изучении тем, связанных с робототехникой, повышает эффективность обучения и развивает у учащихся навыки самостоятельного обучения, проектной деятельности и творческого мышления. Это, в свою очередь, подготавливает их не только к работе в области робототехники и искусственного интеллекта, но и к более широким направлениям, таким как современное производство, цифровые технологии и инновационная деятельность.

В результате интеграция робототехники и искусственного интеллекта в учебный процесс по технологии играет важную роль в профессиональном самоопределении учащихся, а также в их становлении как будущих инженеров, программистов и технологов.

В статье также проводится анализ эффективности специально разработанных веб-сайтов и платформ для учащихся, их влияния на образование и перспектив развития.

Ключевые слова: робототехника, Tinkercad, искусственный интеллект, образование, технология, веб-платформы, практические занятия, программирование.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda texnologik rivojlanish ta'lim jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, sun'iy intellekt va robototexnika ta'lim sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etish imkonini bermoqda. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarga dasturlash asoslarini o'rgatish, muammolarni hal etish ko'nikmalarini shakllantirish hamda ijodiy tafakkurni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Robototexnika va sun'iy intellektni o'rganish nafaqat yangi bilimlarni egallash, balki o'quvchilarning kelajak kasb tanloviga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Dasturlash va muhandislik asoslarini o'zlashtirish orqali o'quvchilar real hayotiy muammolarni hal etish kompetensiyalariga ega bo'lalilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, amaliy mashg'ulotlarga asoslangan ta'lim an'anaviy usullarga nisbatan samaraliroq bo'lib, bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda rivojlangan davlatlarda robototexnika va sun'iy intellekt yo'nalishlari bo'yicha maxsus o'quv dasturlari keng joriy etilmoqda. Jumladan, AQSh, Yevropa va Osiyo mamlakatlarida ushbu yo'nalishlar maktab ta'limiga integratsiyalashgan.

O'zbekiston ham ta'lim tizimiga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali yoshlarning kasbiy rivojlaniishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratmoqda. Xususan, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, mamlakatning ushbu yo'nalishdagi salohiyatini oshirish hamda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalar ijrosini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–358-son qarori¹ asosida sun'iy intellekt sohasini rivojlantirish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Mazkur hujjatning 3-bobi, 5-§ qismida aholining bilim va ko'nikmalarini oshirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish, o'quvchilar hamda talabalar o'rtasida intellektual va ijodiy qobiliyatlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlarni kengaytirish vazifalari ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birga, 4-bobda sun'iy intellekt, robototexnika va boshqa ustuvor yo'nalishlar bo'yicha ta'lim berishni rivojlantirish maqsadlari belgilangan.

2025-yil 22-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–189-son Farmoni² e'lon qilindi. Mazkur farmonga ko'ra, oliy ta'lim tashkilotlarida 15 ta sun'iy intellekt laboratoriyasini ishga tushirish, sun'iy intellekt yo'nalishida amalga oshirilayotgan loyihalar, dasturlar, startaplari va bepul onlayn kurslarni rivojlantirish, shuningdek, ta'lim tizimida sun'iy intellektga asoslangan innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish ishlari jadal-lashtirilmoqda.

Robototexnika va sun'iy intellektning zamonaviy dunyodagi o'rni

Bugungi raqamli dunyoda sun'iy intellekt va robototexnika zamonaviy texnologik taraqqiyotning muhim komponentlari sifatida turli sohalarda tizimli transformatsiyani yuzaga keltirmoqda. Ushbu texnologiyalar sanoat, tibbiyot, transport, ta'lim hamda qishloq xo'jaligida jarayonlarning samaradorligi, aniqligi va ishonchli-ligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilmoqda.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.10.2024 yildagi PQ-358-son <https://lex.uz/uz/docs/-7158604>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 22.10.2025 yildagi PF-189-son <https://lex.uz/uz/docs/-7789403>



Xususan, sanoat ishlab chiqarishida robotlashtirilgan tizimlar murakkab va takrorlanuvchi texnologik operatsiyalarni avtomatlashtirish orqali inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytiradi hamda mahsulot sifatini barqarorlashtiradi. Qishloq xo'jaligida esa sun'iy intellekt asosida ishlovchi avtonom texnikalar (agro-robotlar) ekinlarni ekish, parvarishlash va hosilni yig'ib olish jarayonlarini optimallashtirib, resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tibbiyot sohasida IBM Watson kabi intellektual tizimlar katta hajmdagi tibbiy ma'lumotlarni tahlil qilish orqali kasalliklarni erta aniqlash va aniq diagnostika qo'yishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, Da Vinci Surgical System kabi robotlashtirilgan jarrohlik tizimlari minimal invaziv operatsiyalarni yuqori aniqlik bilan bajarishga imkon berib, bemorlarning tiklanish jarayonini tezlashtiradi hamda operatsion xavflarni kamaytiradi.

Shu tariqa, sun'iy intellekt va robototexnika integratsiyasi zamonaviy jamiyatda innovatsion rivojlanishning asosiy drayverlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Raqamli ta'lim platformalari zamonaviy pedagogik paradigmaning muhim tarkibiy qismi sifatida o'quv jarayonini individuallashtirish va adaptiv o'qitish mexanizmlarini joriy etishga xizmat qilmoqda. Jumladan, Tinkercad, Khan Academy, Duolingo hamda Smart Sparrow kabi platformalar o'quvchilarning bilim darajasi, o'zlashtirish sur'ati va kognitiv xususiyatlarini inobatga olgan holda individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish imkonini beradi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va muammo yechish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Tinkercad platformasi robototexnikani o'rgatishda qulay va samarali vosita hisoblanadi, chunki u o'quvchilarga ko'plab ko'nikmalarni bir joyda va bir vaqtning o'zida o'rganish imkonini beradi. Ushbu platforma orqali olingan bilim va ko'nikmalar real muhitda qo'llaniladigan amaliy natijalar bilan boyitiladi.

Shu bilan birga, LEGO Mindstorms, Arduino va Raspberry Pi kabi o'quv-texnik vositalar STEAM ta'limi doirasida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu texnologiyalar orqali o'quvchilar dasturlash, algoritmik tafakkur, elektronika va muhandislik asoslarini integrallashgan holda o'zlashtiriladi.

Maktab yoshidan boshlab mazkur texnologiyalar bilan tizimli tanishish o'quvchilarda kasbiy yo'naltirilgan kompetensiyalarni erta shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada ular kelgusida yuqori texnologiyalarga asoslangan sohalarda samarali faoliyat yuritish uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Zamonaviy mehnat bozori sharoitida dasturlash, sun'iy intellekt va robototexnika yo'nalishlari ustuvor ahamiyat kasb etib, ushbu sohalarda chuqur bilimga ega bo'lgan mutaxassislar yuqori darajada talab etilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda robototexnika va sun'iy intellekt ta'limining innovatsion rivojlanishdagi o'rnini aniqlash maqsadida kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy hamda amaliy metodlarning uyg'unligi ta'minlandi. Xususan, ilmiy bilishning tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini robototexnika, sun'iy intellekt, STEAM ta'limi, raqamli pedagogika hamda kompetensiyaviy yondashuvga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar tashkil etdi. Shuningdek, robototexnika va sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, Lex.uz bazasida joylashtirilgan rasmiy qaror va farmonlar o'rganildi.

Empirik tahlil jarayonida zamonaviy ta'lim platformalari, jumladan Scratch, Tinkercad, LEGO Education, Khan Academy hamda boshqa raqamli resurslarning didaktik imkoniyatlari qiyosiy tahlil qilindi. Ularning o'quvchilarda algoritmik tafakkur, muhandislik yondashuvi, mustaqil ta'lim olish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdagi samaradorligi baholandi.

Shuningdek, tadqiqotda kuzatish va ekspert baholash usullaridan foydalanilib, robototexnika va sun'iy intellektga oid mashg'ulotlarning o'quvchilar motivatsiyasi, ijodiy fikrlashi hamda kasbiy yo'naltirilishiga ta'siri tahlil etildi. Olingan natijalar asosida ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Robototexnika va sun'iy intellekt asosidagi ta'limning nazariy va amaliy ahamiyati

Bugungi raqamli dunyoda robototexnika va sun'iy intellekt asosidagi ta'lim zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirishni, balki o'quvchilarning texnologik kompetensiyalarini, innovatsion tafakkurini hamda kasbiy tayyorgarligini kompleks rivojlantirishni ta'minlaydi.

Mazkur yo'nalish integrativ yondashuv asosida tashkil etilib, ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarning uyg'un shakllanishiga xizmat qiladi.

Birinchidan, ushbu ta'lim yo'nalishi o'quvchilarning texnologik savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Ya'ni, ular zamonaviy raqamli texnologiyalar, dasturlash muhitlari va avtomatlashtirilgan tizimlar bilan ishlashni o'zlashtiradilar. Natijada, o'quvchilar yuqori texnologiyalarga asoslangan muhitda samarali faoliyat yuritish uchun zarur bazaviy bilimlarga ega bo'ladilar.

Ikkinchidan, robototexnika va sun'iy intellekt asosidagi ta'lim ijodiy hamda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Dasturlash, algoritmlash va robot tizimlarini loyihalash jarayonida o'quvchilar muammoni tahlil qilish, uni tarkibiy qismlarga ajratish hamda optimal yechimlarni ishlab chiqish ko'nikmalarini egallaydilar. Bu esa ularning analitik fikrlashi va muhandislik yondashuvini shakllantiradi.

Uchinchidan, mazkur yo'nalish amaliy ta'limni kuchaytirish orqali nazariy bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi. O'quvchilar real loyihalar ustida ishlash, kod yozish, elektron va mexanik konstruksiyalarni yaratish orqali tajribaviy bilimlarga ega bo'ladilar. Bu jarayon konstruktiv o'rganish (constructivist learning) tamoyillariga mos kelib, bilimlarning chuqur o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

To'rtinchidan, robototexnika va sun'iy intellekt asosidagi ta'lim o'quvchilarning kasbiy yo'naltirilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu sohalar zamonaviy iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlari bo'lib, ularda yetuk mutaxassislar bo'lgan talab yildan-yilga ortib bormoqda. Shu bois, mazkur yo'nalishda erta bosqichda ta'lim olish o'quvchilarning kelajak kasb tanlovini ongli ravishda amalga oshirishga zamin yaratadi.

Beshinchidan, ushbu ta'lim jarayoni jamoaviy ish va ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Loyiha asosida o'qitish (project-based learning) metodlari orqali o'quvchilar guruhda ishlash, vazifalarni taqsimlash, muhandislik yechimlarini birgalikda ishlab chiqish hamda natijalarni taqdim etish kabi muhim kompetensiyalarni egallaydilar.

Umuman olganda, robototexnika va sun'iy intellekt asosidagi ta'lim o'quvchilarni innovatsion iqtisodiyot sharoitida faol ishtirok etishga tayyorlaydigan, ularning intellektual salohiyati va amaliy ko'nikmalarini kompleks rivojlantiruvchi muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

Maxsus ta'limiy veb-platformalarning didaktik imkoniyatlari va tahlili

Zamonaviy ta'lim tizimida maxsus veb-platformalar robototexnikani o'rganishda muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu platformalar masofaviy va aralash (blended learning) ta'limni qo'llab-quvvatlab, o'quvchilarga interaktiv mashg'ulotlar orqali nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash imkonini beradi. Natijada ta'lim jarayonining moslashuvchanligi, individualligi va samaradorligi ortadi.

Xususan, Scratch platformasi vizual blokli dasturlash muhiti orqali boshlovchi o'quvchilarda algoritmik va hisoblash tafakkurini shakllantiradi. Foydalanuvchilar kod bloklarini kombinatsiyalash asosida interaktiv loyihalar yaratib, dasturlashning asosiy prinsiplarini intuitiv tarzda o'zlashtiradilar.

LEGO Education platformasi esa robototexnika elementlari asosida STEAM yondashuvini amalga oshirib, o'quvchilarning muhandislik fikrlashi, ijodkorligi va muammoni hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu resurslar ta'lim jarayonini amaliy yo'naltirilgan va qiziqarli shaklda tashkil etishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Tinkercad platformasi elektronika va 3D modellashtirishni o'rgatishda samarali virtual laboratoriya vazifasini bajaradi. U orqali o'quvchilar sxemalar yaratish, Arduino asosida dasturlash va modellashtirish jarayonlarini xavfsiz muhitda sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Khan Academy, Duolingo hamda Smart Sparrow platformalari zamonaviy raqamli ta'lim muhitida adaptiv va individuallashtirilgan o'qitishni ta'minlovchi muhim vositalar hisoblanadi. Ushbu tizimlar o'quvchilarning bilim darajasi, o'zlashtirish sur'ati va ehtiyojlariga mos ravishda o'quv kontentini dinamik tarzda moslashtiradi. Natijada ta'lim jarayonining samaradorligi oshib, mustaqil o'rganish, analitik fikrlash va kompetensiyaviy yondashuv asosida bilimlarni egallash imkoniyati kengayadi.

Zamonaviy ta'limni amalga oshirishda foydalanilayotgan sun'iy intellektga oid mashhur veb-platformalarning qisqacha tavsifi quyidagicha:

1. **TensorFlow** – mashinaviy o'qitish va chuqur o'rganish modellarini yaratish uchun ochiq kodli platforma bo'lib, ilmiy tadqiqot va amaliy ishlanmalarda keng qo'llaniladi.
2. **ChatGPT va OpenAI** – sun'iy intellekt modellarini ishlab chiqish va qo'llash uchun mo'ljallangan platforma bo'lib, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) hamda generativ AI sohasida yetakchi hisoblanadi.
3. **Google Colab** – brauzer orqali ishlovchi bepul muhit bo'lib, foydalanuvchilarga Python dasturlash asosida AI modellarini yaratish va sinash imkonini beradi.



4. **IBM Watson** – katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, tabiiy tilni tushunish va biznes qarorlarini qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan sun'iy intellekt tizimi.
5. **Microsoft Azure Machine Learning** – mashinaviy o'qitish modellarini yaratish, o'qitish va joriy etish uchun kompleks bulutli platforma hisoblanadi.
6. **Runway ML** – media va dizayn sohasida sun'iy intellektdan foydalanish imkonini beruvchi platforma bo'lib, video, tasvir va kontent yaratishda qo'llaniladi.

Umuman olganda, mazkur platformalar robototexnika va sun'iy intellekt ta'limini samarali tashkil etish, o'quvchilarning texnologik savodxonligini oshirish hamda ularni innovatsion faoliyatga tayyorlashda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktab o'quvchilarini robototexnika va sun'iy intellekt (SI) sohasiga jalb etish zamonaviy ta'lim tizimini transformatsiya qilishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorgarligini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo'nalish o'quvchilarda ijodiy yondashuv, analitik tafakkur, muammolarni hal qilish hamda jamoaviy faoliyat kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Robototexnika va sun'iy intellekt asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni amaliy yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. O'quvchilar robot tizimlarini loyihalash, dasturlash asoslarini o'zlashtirish hamda SI algoritmlarini qo'llash orqali nazariy bilimlarni real muammolarni hal etishda tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantiradilar. Bu esa ularning kognitiv faolligini oshirib, o'ziga bo'lgan ishonchini hamda yangi texnologiyalarni egallash qobiliyatini mustahkamlaydi.

Shuningdek, robototexnikaga oid loyihaviy faoliyat ko'pincha jamoaviy hamkorlikni talab etadi. Bunday muhitda o'quvchilar kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantiradilar, o'zaro fikr almashish, vazifalarni taqsimlash hamda muammolarni jamoaviy tarzda hal etish tajribasini egallaydilar. Natijada ularning ijtimoiy va muhandislik ko'nikmalari uyg'un holda shakllanadi.

Umuman olganda, robototexnika va sun'iy intellekt bo'yicha chuqur bilim hamda ko'nikmalarga ega bo'lish o'quvchilarning kelajakdagi kasbiy yo'nalishini ongli ravishda tanlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy innovatsion iqtisodiyot sharoitida ushbu texnologiyalar ustuvor ahamiyat kasb etayotganligi sababli, o'quvchilarni mazkur sohalarga erta bosqichdan jalb etish ularning raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Taklif sifatida umumta'lim maktablarida robototexnika va sun'iy intellekt bo'yicha maxsus to'garaklar hamda fakultativ kurslarni kengaytirish maqsadga muvofiq. Ta'lim muassasalarini zamonaviy texnik vositalar, konstruktor to'plamlar va raqamli platformalar bilan ta'minlash zarur. Pedagog kadrlarning robototexnika va SI yo'nalishidagi malakasini muntazam oshirib borish lozim. O'quvchilar o'rtasida tanlovlar, hackathonlar va innovatsion loyihalar ko'rgazmalarini tashkil etish tavsiya etiladi. Shuningdek, robototexnika hamda sun'iy intellekt elementlarini umumiy fanlar mazmuniga bosqichma-bosqich integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O'zbekiston, 2017. 488 b.
2. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: O'zbekiston, 2016. 56 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–358-son qarori. Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/uz/docs/-7158604>
4. Nazarov, X. N. Robotlar va robototexnik tizimlar. Darslik. Toshkent: Mashhur Press, 2019. 236 b.
5. Davis, D. Learning Tinkercad: A Beginner's Guide to 3D Modelling and Electronics. Packt Publishing, 2020.
6. Russell, S., & Norvig, P. Artificial Intelligence: A Modern Approach (4th ed.). Pearson Education, 2021.
7. Mitchell, M. Artificial Intelligence: A Guide for Thinking Humans. Farrar, Straus and Giroux, 2019.
8. Alimov, R. X., Xayitmatov, O. T., Xakimov, A. F. va boshqalar. Axborot tizimlari. Toshkent: TDIU, 2013.
9. Smith, M., & Brown, S. "Utilizing Tinkercad for STEM Education: A Practical Approach". Journal of Educational Technology, 2021, 45(2), 112–123.
10. Hansen, S. The LEGO Education Idea Book. No Starch Press, 2014.
11. Siciliano, B., & Khatib, O. Springer Handbook of Robotics. Springer, 2016.
12. Murphy, R. R. Introduction to AI Robotics. MIT Press, 2019.
13. OECD. Trends Shaping Education 2019. OECD Publishing, 2019.
14. UNESCO. AI and Education: Guidance for Policy-makers. UNESCO, 2021.
15. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2020. WEF, 2020.
16. Scratch

17. LEGO Education
18. Tinkercad
19. Google Classroom
20. Khan Academy
21. Code.org
22. Arduino
23. Raspberry Pi
24. Coursera
25. edX
26. RobotShop
27. Review.uz
28. Lex.uz

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.